

Usmanova Rano Mirjalilovna

i.f.n., dotsent, Alfraganus universiteti
rano.usmanova25@gmail.com



TA'LIM XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLARNING TAJRIBASI VA ULARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya: Dunyoda ta'lim sohasi, birinchidan, mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi yetakchi omilga aylandi, ikkinchidan esa, aholining bilim darajasi, ta'lim va fan infratuzilmasining rivojlanganligi, yangi bilimlar, innovatsiya faoliyati, ishlab chiqarishdagi yangi texnologiyalar iqtisodiyotni barqaror va samarali rivojlantirishning zaruriy shartidir.

Аннотация: В мире сфера образования стала, во-первых, ведущим фактором, обеспечивающим социально-экономическое развитие стран, во-вторых, уровень знаний населения, развитие образовательной и научной инфраструктуры, новых знаний, инновационной деятельности, новые технологии в производстве являются необходимым условием стабильного и эффективного развития экономики.

Annotation: In the world, the education sector has become, firstly, the leading factor ensuring the socio-economic development of countries; secondly, the level of knowledge of the population, the development of educational and scientific infrastructure, new knowledge, innovation, new technologies in production are a necessary condition for stable and effective economic development.

Kalit so'zlar: inson resurslari, ta'lim xizmatlari bozori, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, ta'lim sohasi, ta'lim, yukori malakali ishchi kuchi, malaka oshirish, mexnat bozori, bilim, malakaviy tayergarlik.

KIRISH

Dunyoda ro'y berayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, birinchidan, ta'lim tizimining rivojlanishiga ma'lum darajada ta'sir etmasdan qolmaydi, ikkinchidan esa, inqirozdan keyingi rivojlanishda ta'lim tizimi tayyorlayotgan kadrlarning sifati, salohiyati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri hamda uning oqibatlarini yumshatishga ma'lum darajada yangi sharoitlarga moslashtirilgan kadrlar tayyorlash milliy modelining ishlab chiqilishi va hayotga tatbiq etilishi ijobiy ta'sir etdi. Ushbu model shaxsni har taraflama shakllantirish, unga munosib hayot kechirishi uchun sharoit yaratish, shuning barobarida mamlakatning rivojlanishi va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda kishilarning faol ishtirok etishlarini talab qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda ta'lim sohasining iqtisodiy jihatlarini tadqiq qilish XX asrning 90- yillari o'rtalaridan boshlangan. Ungacha bo'lgan davrda E.G'.Nabiev xizmat ko'rsatish sohasining takror ishlab chiqarish jarayonidagi o'rni bilan bog'liq muammolarni tahlil etishda inson kapitali va uning jamg'arilishi bilan bog'liq jihatlarni tadqiq etgan .

S.S.G'ulomov o'z kitobida mustaqillik yillarida ta'lim xizmatlari bozorining asosiy sub'ekti bo'lgan oliy ta'lim tizimi rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini yoritib bergan. Uning fikricha, «Ta'lim shunchaki jamiyat hayotining tomonlaridan birigina emas, balki umuman jamiyatni rivojlanishning yetakchi tizimini hosil qiluvchi omil bo'lmoqda» .

M.X.Saidov esa oliy ta'limni investitsiyalash, boshqarish va uning marketingi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan.

METODOLOGIYA

Tadqiqot ishida kuzatish, umumlashtirish, omilli va dinamik taqqoslash, mantiqiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

O'zbekiston bugun xalqaro hamjamiyatning va global moliyaviy-iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bank tizimini qo'llab-quvvatlash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik yangilash va diversifikatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish - O'zbekiston uchun inqirozni bartaraf etish va jahon bozorida yangi marralarga chiqishning ishonchli yo'lidir.

O'z navbatida ta'lim tizimi fan sohasi bilan hamkorlikda bilim berish, ilg'or fan-texnika va texnologiyalardan keng foydalanish, milliy iqtisodiyotimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning turli yo'nalishlarida innovatsiyalarni yaratadi, natijada milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Bu holatni esa ta'lim xizmatlari bozorida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini

belgilashda va ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqishda e'tiborga olish zarur.

Aytib o'tish lozimki, O'zbekistonda aholining bilim darajasi uning jahon iqtisodiyotidagi raqobatbardoshligini ta'minlovchi omillardan biridir. Chunki, ta'lim tizimini barqaror rivojlantirish iqtisodiy o'sishning xomashyoga asoslangan modelidan yangi tejamkor texnologiyalariga asoslangan modeliga o'tishga imkon yaratadi. Shu nuqtai nazardan ta'lim bozorining asosiy sub'ekti bo'lgan oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirishning xorij tajribasini o'rganish va uni mamlakatimizga joriy etish imkoniyatlarini aniqlash muhimdir.

Germaniya oliy ta'lim asosini davlatga qarashli bo'lgan oliy o'quv yurtlari tashkil etadi. Xususi oliy o'quv yurtlarining oxirgi yillarda jadal rivojlanishiga qaramasdan ularning ta'lim tizimidagi ulushi kam. Ular, birinchidan, mehnat bozorida talabni qondirishga yo'naltirilgan katta bo'lmagan oliy o'quv yurtlaridir, ikkinchidan, xususi kompaniyalarning moliyaviy ko'magi yordamida tashkil etilgan yoki korporativ ta'lim muassasalaridir.

Germaniyada oliy ta'lim muassasalarining ikki turi mavjud - universitetlar va oliy kasbiy o'quv yurtlari. Oliy kasbiy o'quv yurtlarining universitetlardan farqi, ularning ixtisoslashgan o'quv muassasalari ekanligi va ko'lami bo'yicha universitetlarga nisbatan kichik bo'lganliklari hamda o'qishning o'rtacha davomiyligi besh yil ekanligidir (universitetlarda 7 yil).

Germaniyada ta'lim tizimi mahalliy hukumatlar tomonidan boshqariladi. Ular, birinchidan, ta'lim tizimini rivojlantirish, va ular shu jumladan oliy o'quv yurtlarini boshqarish bo'yicha to'liq avtonomiyaga egadirlar. Ikkinchidan, oliy ta'lim muassasalariga kirish talablari, o'quv rejaları doirasi, sinov tizimi, professor-o'qituvchilarning shtat jadvali va ish haqini to'lash tizimini nazorat qiladilar.

Mahalliy organlarning oliy ta'lim tizimini boshqarish bo'yicha faoliyatini hududiy ta'lim va madaniyat vazirliklari konferensiyasi muvofiqlashtiradi. Uning tarkibida oliy ta'lim sohasidagi siyosat va boshqaruv qo'mitasi faoliyat yuritadi. Hukumat bilan aloqalarda oliy ta'lim muassasalarining manfaatlarini oliy maktab rektorlari va prezidentlari konferensiyasi himoya qiladi. Ushbu organ turli federal va yerlar mahalliy vazirliklari va ta'lim tizimi o'rtasida vositachi bo'lib hisoblanadi. "Ta'lim tizimini va tadqiqot ishlarini rivojlantirish" federal hududiy komissiyasi hukumat darajasida harakat qiluvchi qo'shma organdir. U mamlakat miqyosida ta'lim tizimini rivojlantirishning umumiy masalalari va ilmiy-tadqiqot faoliyatini moliyalashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish bilan shug'ullanadi.

Undan tashqari oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv tuzilmasi va usullarini takomillashtirish bilan "Oliy maktabning axborot tizimi" deb nomlangan, mahalliy va federal hukumatlar tomonidan moliyalashtiriladigan maxsus organ shug'ullanadi. Germaniyada 1978

yilda Oliy ta'lim to'g'risida qonun qabul qilingan. Demak Germaniyada oliy ta'limni boshqarish davlat miqyosida nomarkazlashtirilgan xususiyatga ega, biroq mahalliy (yerlar) miqyosida o'ta markazlashtirilgandir.

Umuman olganda oliy ta'limni moliyalashtirishda hukumatning ulushi 8 foizni, hududiy hukumatlarning ulushi 90 foizni, alohida shaxslar va tashkilotlarning ulushi 2 foizni tashkil etadi. Germaniyada ta'limga yo'naltirilgan xarajatlar yalpi ichki mahsulotning 45 foiziga tengdir. Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish jarayoni ko'p bosqichli, murakkab jarayon hisoblanadi. Bunda har xil darajadagi hukumat organlarining nazorati kuchlidir.

Globalashuv jarayoni Yevropa Ittifoqida oliy ta'lim tizimini unifikatsiyalash, Germaniyada esa oliy ta'lim tizimini isloh etish zaruriyatini keltirib chiqardi. Uning maqsadi oliy ta'lim tizimida raqobat muhitini shakllantirish va ta'lim olish sifatini oshirishni rag'batlantirish mexanizmlarini tatbiq etishdan iborat.

Yaponiyada oliy ta'lim tizimi tarixiy jihatdan nemis modeli ta'sirida shakllangan. Tashkiliy jihatdan ta'lim vazirligi tomonidan markazlashtirilgan boshqaruv universitetlarning avtonom faoliyat yuritishi bilan uyg'unlashtirilgan.

Universitet fakultetlari, aspiranturalari, ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlari universitet rahbarlaridan holidir. Ular ta'lim vazirligi tomonidan bevosita boshqariladi. Universitet rektorlari o'ziga xos konfederativ birlashmalarning faxriy rahbarlari bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga kvaziavtonom tizim ta'lim vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan qoidalar asosida faoliyat yuritadi. Akademik bo'limlar boshliqlari ta'lim vazirligining siyosatini hayotga tatbiq etuvchilar bo'lib hisoblanadilar.

Yaponiyada 783 universitetlar faoliyat yuritadi. Bular 86 milliy, 92 munitsipal va 605 xususiy universitetlardir.

Yaponiyada amalga oshirilayotgan oliy ta'lim tizimini isloh etish tadbirlari universitetlarning avtonom tarzda faoliyat yuritishini kuchaytirish, ularning rahbarlariga budjetni shakllantirish va kadrlarga haq to'lash, o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangi kurslarni ochish masalalarida qarorlar qabul qilish bo'yicha mustaqillik berishni nazarda tutadi. Bu borada quyidagi tadbirlarni amalga oshirish mo'ljalangan:

- universitetlarga davlat muassasasi maqomini ochiq hissadorlik jamiyati maqomiga o'zgartirishga ruxsat berilishi orqali ularning boshqarish tizimi samaradorligini oshirishni ta'minlash;

- professor-o'qituvchilarni bir umrga yollash tizimidagi shartnoma tizimiga o'tkazish. Bu tadbir universitetlarga yoshlarning ishga kelishini rag'batlantiradi;

- universitetlarning kadrlar tayyorlash dasturlarini samaradorligini oshirish, shu bilan birga ilmiy-tadqiqot sohasida ularning xususiy korporatsiyalar bilan hamkorligini kuchaytirish maqsadida bu universitetlardan majburiy olti yillik rivojlanish rejalarini ishlab chiqishni talab etish, moliyalashtirishni esa ushbu

rejalarning bajarilishiga qarab amalga oshirish;

- mutaxassislarni tayyorlash, yangi dasturlarni amaliyot talablariga mos ravishda o'zgartirish;

- islohotlarni amalga oshirish milliy universitetlarni boshqarishni takomillashtirishni nazarda tutadi. Har bir milliy universitet ikkita maslahat kengashiga ega bo'lishi belgilangan. Birinchi kengash o'qituvchilar jamoasi vakillaridan iborat bo'lib, u o'qitish dasturlari va ilmiy faoliyat masalalari bilan shug'ullanadi. Boshqaruv va moliyalashtirish bilan bog'liq bo'lgan masalalar bilan ikkinchi kengash shug'ullanadi. Uning tarkibi hukumat, sanoat, ta'lim vazirliklari vakillari va ta'lim sohasi bo'yicha mutaxassislardan iborat. Kengashlar universitet rektoriga o'z takliflarini taqdim etadilar. Universitet rektorlari ularni qo'shma yig'ilishda muhokama qiladilar.

AQSh oliy ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari. AQShda ta'lim tizimining asosiy, o'ziga xos xususiyatlaridan biri – uning nomarkazlashtirilganligidir. Mamlakat konstitutsiyasiga binoan ta'lim tizimi shtatlar tomonidan boshqariladi va moliyalashtiriladi.

AQShning oliy ta'lim tizimi quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- oliy o'quv yurtlarining keng avtonomiyasi va ular faoliyati ustidan qattiq markazlashtirilgan davlat nazoratining yo'qligi; davlat va xususiy sektorlarning mavjudligi; moliyalashtirishning ko'p manbaligi;

- oliy ta'lim tizimida raqobat muhitining shakllanganligi sababli uning yuqori samaradorlikka ega ekanligi.

AQShda oliy ta'limga har doim iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlovchi omil sifatida qarab kelingan. Hozirgi sharoitda oliy ta'lim sohasida vujudga kelgan muammolarni hal etish uchun bu tizimni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yangi strategik yondashuvlar ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

Oliy ta'limdagi asosiy muammo oliy ta'lim muassasalarining yetarli darajada moliyalashtirilmasligidir. Shtatlar hukumatlari oliy ta'lim muassasalaridan bir tarafdan ko'proq mutaxassislarni tayyorlashni talab etadilar, ikkinchi tarafdan esa ajratilayotgan moliyaviy resurslarni qisqartirishga harakat qiladilar. Oliy ta'lim muassasalari vujudga

kelayotgan muammolarning sababini oliy ta'limga ajratilayotgan mablag'larning yetishmasligida ko'radilar. Ushbu holatning mavjudligi o'quv muassasalari bajarilishini amalga oshirishni, ularning rivojlanishini rejalashtirish, shtatlar hukumatlari tomonidan ularning oldilariga qo'yilgan ustuvor vazifalarning bajarilishini qiynlashtiradi. Bunday sharoitda oliy ta'lim muassasalari budjetdan moliyalashtirish bo'yicha o'z talablarini asoslash uchun maslahat beruvchi kompaniyalar yordamida turli tadqiqotlarni o'tkazishga harakat qilmoqdalar.

XX asrning 90-yillari boshida mutaxassislar tomonidan Fransiya oliy ta'lim tizimini isloh etish va milliy ta'lim konsepsiyasini qayta ko'rib chiqib ushbu yo'nalishda yangi siyosatni ishlab chiqish g'oyasi ilgari surildi. Bu yo'nalishda quyidagilar taklif etilgan:

- oliy o'quv yurtlarini boshqarishni nomarkazlashtirish, ta'lim vazirligi esa asosan ta'lim xizmatlari sohasi rivojlanishini strategik rejalashtirish, ta'lim sifatini tahlil etish, muvofiqlashtirish, baholash va nazorat qilish vazifalarini bajarishi, qolgan vazifalar esa mahalliy boshqaruv organlari ixtiyoriga berilishi;

- ta'lim xizmatlari bozorida oliy ta'lim muassasalari o'rtasida raqobatni kuchaytirish. Bunga erishish uchun davlatga qarashli bo'lgan va xususiy oliy o'quv yurtlar o'rtasidagi tengsizlikni bartaraf etish, mahalliy hukumat organlari, tadbirkorlik uyushmalari yoki tadbirkorlar birlashmalari tomonidan oliy o'quv yurtlarini barpo etishni rag'batlantirish.

Rossiya ta'lim sohasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari qilib quyidagilar belgilangan:

- zamonaviy uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish;

- kasbiy ta'limning sifatini oshirish;

- ta'lim tizimining investitsion jozibadorligini oshirish;

- ta'lim tizimida samarali iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish.

Rossiya oliy ta'lim tizimida mavjud bo'lgan muammolar quyidagilardan iborat: ta'limning mazmuni va texnologiyalarining hozirgi zamon talablariga javob bermasligi yoki mos emasligi; ta'lim tizimining mehnat bozori talablariga moslasha ololmayotganligi; yuqori malakali o'qituvchilar va xodimlarning yetishmasligi.

Germaniya, Yaponiya, AQSh, Fransiya va Rossiya oliy ta'lim tizimlarining tuzilishi, boshqaruvi va moliyalashtirish tizimlarida ma'lum darajadagi farqlar mavjud. Biroq shunga qaramasdan ularning asosiy belgilari bir-biriga mos keladi. Ular quyidagilardan iborat:

- globallashtirish jarayoni ta'sirida mamlakatlarning jahon bozorida raqobatbardoshligini ta'minlash oliy ta'lim tizimini isloh etish va doimiy ravishda ro'y berayotgan o'zgarishlarga moslashtirib borish zarurligining tan olinishi;

- oliy ta'lim tizimini boshqarishni nomarkazlashtirishning zarurligi, davlat organlarini tomonidan boshqarishni to'g'ri usullardan bilvosita, ya'ni iqtisodiy usullarga o'tkazishning zarurligi;

- ta'lim xizmatlari bozorida oliy ta'lim muassasalari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, oliy o'quv yurtlar faoliyatini strategik menagement asosida olib borishning zarurligi;

- mamlakatlar aholisining barcha qatlamlariga oliy ta'lim olishga teng imkoniyatlarni yaratish asosida oliy ta'limni ommaviylashtirish, oliy ta'limni moliyalashtirishning yangi mexanizmlarini joriy etishga harakat qilish va uning samaradorligini oshirish, tahlil etilgan mamlakatlarda oliy ta'limni rivojlantirish, uni tashqi muhitga moslashtirish, samaradorligini oshirish borasidagi mavjud muammolar u yoki bu darajada bizning mamlakatimiz ta'lim tizimiga ham xosligi;

- xorijiy mamlakatlarda oliy ta'lim tizimini takomillashtirish borasidagi quyidagi tajriba bizning mamlakatimiz uchun ahamiyatlidir:

- oliy ta'lim tizimini boshqarishni markazlashtirish va nomarkazlashtirish o'rtasida oqilona nisbatni topish va boshqaruvda iqtisodiy usullarga o'tish;

- ta'lim xizmatlari bozorida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish mexanizmini takomillashtirish;

- oliy ta'lim sifatini oshirish;

- oliy ta'limni moliyalashtirishning yangi mexanizmlarini joriy etish.

Tahlil etilgan mamlakatlarda oliy ta'limni rivojlantirish, uni tashqi muhitga moslashtirish, samaradorligini oshirish borasidagi mavjud muammolar u yoki bu darajada bizning mamlakatimiz ta'lim tizimiga ham xosdir. Shu bois bu borada ularning tajribasi O'zbekiston Respublikasi uchun ham ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Monografiya. Ta'lim xizmatlari bozorida iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish. R.M.Usmanova, A.Qodirov, A.M.Tursunov, 2015.
2. Abulqosimov X.P. Shakllanayotgan bozor iqtisodiyotida inson omili va uni faollashtirish - T., TMI, 2006, 187 - B.
3. Бабаян С.А., Зуев В.М. Кадры в условиях рынка - М.: Экономика, 1992, -160 В.
4. Becker G. Human Capital. N.Y.: 1964, - 43 P.
5. Бартнев С. Экономические теории и школы–М.: Бек,1999, - 352 С.
6. Теория и практика интегративных исследований в гуманитаристике / [Р. М. Ковалева и др. ; редкол.: Р. М. Ковалева (гл. ред.) и др.]; БГУ. Минск : БГУ, 2021, - 295 С.
7. Макарова М. В. Управленческий консалтинг в сфере образования : учеб. пособие для учреждений высшего образования / М. В. Макарова. М. : Юрайт, 2021, 79 С. : ил.
8. Сорокин П. А. Человек, цивилизация, общество / П. А. Сорокин. – М: Издательство политической литературы, 1992, –393 С.
9. - Касьяненко, Т. Г. Анализ и оценка рисков в бизнесе: учебник и практикум для вузов / Т. Г. Касьяненко, Г. А. Маховикова. – 2-е изд., перераб. и доп. — Москва: Издательство Юрайт, 2023, — 381 С. — (Высшее образование). — ISBN 978-5-534-00375-8. — Текст: электронный // Образовательная платформа Юрайт [сайт]. — URL: <https://urait.ru/bcode/510969>